“O‘zkimyosanoat” AJ ishchi guruhi texnik imkoniyatlarni o‘rganish va amaliy hamkorlikni yanada rivojlantirish maqsadida “O‘zbekximmash” AJga tashrif buyurdi

// 16.11.2022
https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/uzkimyosanoat-aj-ishchi-guruhi-uzbekximmashga-ajga-tashrif-buyurdi



Poytaxtimizda o‘tkazilayotgan “Respublika tarmoqlararo kooperatsiya sanoat yarmarkasi” doirasida 16-noyabr kuni “O‘zkimyosanoat” AJning Texnik jihatdan tartibga solish va ishlab chiqarishni muvofiqlashtirish departamenti boshlig‘i Rustam Ayxodjayev boshchiligida texnologlar, mexaniklar, konstruktorlar va boshqa tegishli mutaxassislardan tashkil topgan ishchi guruh texnik imkoniyatlarni o‘rganish va amaliy hamkorlikni yanada rivojlantirish maqsadida “O‘zbekximmash” AJga bordi.

Tashrif davomida ishchi guruh tomonidan “O‘zbekximmash” AJda “O‘zkimyosanoat” AJ tizim korxonalarining ishlab chiqarish sexlari uchun texnologik asbob-uskunalarni loyihalash, texnik xizmat ko‘rsatish, ishlab chiqarish sohasidagi faoliyat va hamkorlikni kengaytirish yuzasidan mavjud imkoniyatlar

o‘rganildi.

Ishchi guruh tomonidan amalga oshirilgan o‘rganishlar va hamkorlikni kengaytirish yuzasidan o‘tkazilgan muzokaralar natijasida “O‘zkimyosanoat” AJ hamda “O‘zbekximmash” AJ o‘rtasida umumiy qiymati 20 mlrd.so‘mdan ortiq bo`lgan memorandum imzolandi.

Bundan tashqari, tadbir davomida “O‘zbekximmash” AJ mutaxassislarining “O‘zkimyosanoat” AJ tizim korxonalariga tashriflarini tashkil qilish hamda “O‘zkimyosanoat” AJ tizim korxonalari va “O‘zbekximmash” AJning loyihalash bo‘limlari o‘rtasida yaqindan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kelishib olindi.




Uzkimyosanoat
"O'zkimyosanoat" AJ
MATBUOT XIZMATI
uzkimyosanoat
uzkimyosanoat.uz
(+99878) 140-74-26


Uzkimyosanoat
"O'zkimyosanoat" AJ
MATBUOT XIZMATI
uzkimyosanoat
uzkimyosanoat.uz
(+99878) 140-74-26



“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati